

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH: AQSH, XITOY, SINGAPUR VA O'ZBEKISTON MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL: YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA TAHLILUY YECHIMLAR

Majitov Alijon

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14173524>

Anotatsiya. Maqolada korrupsiya nima ekanligi, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari shuningdek, xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasini o'rghanish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari, korrupsiya darajasi past bo'lgan davlatlar qanday normalarni belgilaganligi, AQSh, Singapur va Xitoy davlatlardagi korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha sayi xarakatlari va ularning normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, O'zbekiston, AQSH, Xitoy, Singapur, xorijiy tajriba, korruption jinoyat, siyosiy korrupsiya, iqtisodiy korrupsiya, ijtimoiy korrupsiya.

FIGHTING CORRUPTION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CASE OF THE USA, CHINA, SINGAPORE AND UZBEKISTAN: EMERGING PROBLEMS AND ANALYTICAL SOLUTIONS

Abstract. In the article, what is corruption, issues of combating corruption in the Republic of Uzbekistan, as well as by studying the experience of foreign countries in combating corruption, their characteristics, what norms are set by countries with a low level of corruption, corruption in the USA, Singapore and China. number of countermeasures and their normative legal documents were analyzed.

Key words: Corruption, Uzbekistan, USA, China, Singapore, foreign experience, corrupt crime, political corruption, economic corruption, social corruption.

БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ США, КИТАЯ, СИНГАПУРА И УЗБЕКИСТАНА: ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И АНАЛИТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

Аннотация. В статье рассмотрено, что такое коррупция, вопросы борьбы с коррупцией в Республике Узбекистан, а также путем изучения опыта зарубежных стран по борьбе с коррупцией, их специфических особенностей, какие нормы установлены странами с низким уровнем коррупции. В США, Сингапуре и Китае проанализирован ряд мер по борьбе с коррупцией в странах и их нормативно-правовых документах.

Ключевые слова: Коррупция, Узбекистан, США, Китай, Сингапур, зарубежный опыт, коррупционная преступность, политическая коррупция, экономическая коррупция, социальная коррупция.

Kirish. Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida korrupsiya davlatlar rivojlanishiga, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yuksalishiga to'sqinlik qilayotgan salbiy illat sifatida paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"¹.

Haqiqatdan ham, korrupsiyaviy jinoyatlar davlatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, shuningdek xalqning davlat organlariga nisbatan ishonchini susaytiradi². O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatiga yetarli darajada etibor berilmasdan, asosan, davlatning bir qator asosiy shartnomalarga qo'shilishi bilan harakterlanib, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lidagi tajribasini o'rganish, ularni amaliyotga tadqiq qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini qonuniy tartibga solish masalalariga oid zarur chora-tadbirlar ko'rilmadi³.

Korrupsiya - bu pora berish yoki olish evaziga mansabdar shaxs tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan, shuningdek, bu bilan bog'liq rasmiy nufuz maqomidan, imkoniyatlar va aloqalaridan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishidir. Boshqacharoq qilib aytganda korrupsiya - bu uyushgan jinoyatchilik kuchli bo'lgan davlatlarga xos bo'lgan mansabdar shaxslarni pora berib sotib olish, ularning sotqinligi, poraxo'rligidir.

Korrupsiya boshqaruvning barcha darajalarida uchraydi: global, milliy va mahalliy. Barcha turdag'i agentlar (jismoniy shaxslar, korxonalar, davlat xizmatchilari va siyosatchilar) korrupsiyagaixtiyoriy yoki noixtiyoriy ravishda jalb qilinishi mumkin⁴.

Korrupsiya turli shakllarga ega: poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o'zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste'mol qilish, xushomadgo'ylik, sovg'a, qarindoshlik,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

² <https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);

³ AMANDILLAYEV, B. (2022). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI. Академические исследования в современной науке, 1(18), 180-192.

⁴ Malikovna, K. R. N. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH-MUSTAQILLIK FALSAFASINING ASOSIY MASALALARIDAN BIRI. PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL, (SI-1).

homiylidagi va boshqalar. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish taktikasi deb korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan aniq vositalar turkumidan iborat bo'lgan chora-tadbirlar tizimiga aytildi⁵.

Korrupsiya – davlatlarning rivojlanishiga jiddiy ta'sir etadigan xavfli illat hisoblanadi.

Har bir mamlakatda korrupsiyaning turli shakllari va ularga beriladigan ta'riflar juda ko'p. Yer yuzida mavjud bo'lgan har bir mamlakat o'zining imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos usullar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini olib bormoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash olib borishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan mushtarak usullari mavjud emas⁶.

Korrupsiyaning holatiga turli omillar: ijtimoiy va madaniy sharoit, institutsional va tashkiliy tuzilmalar, siyosiy muhit, shuningdek iqtisodiy va tarkibiy o'zgarishlar siyosati ham ta'sir qiladi.

Yirik korrupsiya deganda, amaldagi davlat siyosatini yo'qqa chiqaradigan, hukumat darajasida amalga oshiriladigan siyosiy va hukumat rahbarlariga xalq hisobidan manfaat ko'rishga imkon beradigan harakatlar tushuniladi. Mayda korrupsiya deganda, odatda kasalxonalar, maktablar, miliitsiya bo'limlari va boshqa joylarda asosiy xizmatlardan foydalanishga uringan oddiy fuqarolar bilan aloqa qilishda hokimiyatning quyi va o'rta bo'g'inlari mansabdar shaxslarining kundalik ishonchli vakolatlarini suiiste'mol qilishlari tushuniladi.

Siyosiy sohada korrupsiya demokratik tamoyillarga o'tish jarayonini to'xtatadi, siyosiy maqsadlarni umummilliy rivojlanish maqsadlariga emas ayrim guruhlarning maqsadlariga tobe qiladi, qonun ustuvorligini buzilishiga, siyosiy va sud institutlari faoliyatining samarasini tushishiga, mamlakat obro'sining tushishiga va haqiqiy siyosiy raqobatning yo'qolishiga olib keladi, shu bilan hokimiyatga ishonch susayadi, uni jamiyatdan uzoqlashtiradi.

Iqtisodiy sohada korrupsiya davlat mablag'lari va resurslarining samarasiz taqsimlanishi va sarflanishiga, biznesni yuritishda ko'p vaqt va moddiy xarajatlarga, moliyaviy va tijorat xavflarining o'sishiga, narxlarning o'sishiga, raqobat muhitining yomonlashishiga, xufiyona iqtisodiyotning o'sishiga, soliq tushumlarining kamayishiga, investitsion muhitning yomonlashishiga, investitsiyalarning kamayishi va umuman mamlakat iqtisodiyoti samaradorligining pasayishiga olib keladi.

⁵ ХИДИРОВ Х. Глобал коррупция ижтимоий-маданий инқироз оқибати.// Фалсафа. Дарслик. –СамДУ.2021. –Б.504.

⁶ Mo'minova, D. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR TAJRIBASI. Академические исследования в современной науке, 3(17), 193-198.

Ijtimoiy sohada korrupsiya ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikning kuchayishi, hokimiyatning byudjet sohasiga zarar yetkazuvchi “zarbalar” (“otkat”)lar tufayli ijtimoiy muammolarni yechishga qodir bo‘lmay qolishi, uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi va jamoatchilik ko‘z o‘ngida qonunning obro‘sizlanishiga olib keladi. Bu axloqiy me’yorlar mohiyatining yo‘qolishiga va ijtimoiy keskinlikning o’sishiga sabab bo‘ladi. Qur’oni Karimda poraxo‘rlik bevosita taqiqplanadi: “Bir-birlaringizning mollariningizni botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang” (Baqara surasi, 188)⁷.

Asosiy qism. Buguni kunga kelib amalga oshirilgan islohotlar korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasiga muayyan darajada ta'sir qildi. Jumladan, 2020-yilda korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha jami 1723 nafar, shundan 9 nafar respublika darajasidagi, 45 nafar viloyat darajasidagi, 1669 nafar tuman va shahar darajasidagi mansabdar shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiib, korrupsiya oqibatida yetkazilgan 500 mlrd so'mlik moddiy zararning 71 foizi yoki 355 mlrd so'mi aybdorlardan tergovdavomida undirilgan bo'lsa, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdar shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog'liq bo'lган 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan⁸. Amaldagi qonunchilikda korrupsiyaviy jinoyatlarga oid bir qator tushunchalarga nisbatan normativ-huquqiy ta'riflarning mavjud emasligi, korrupsiyaviy qilmishlarning jinoyat qonunchiligi bilan lozim darajada qamrab olinmaganligi kabi muammolarning mavjudligi korrupsiyaga qarshi kurashishdan ko'zlangan natijaga erishish va bu borada O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rmini yanada yaxshilashga to'siq bo'lmoqda. Jinoyat qonunchiligidagi korrupsiyaga oid normalarni tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqish, mazkur jinoyatlar elementlarining kompleksliligi, maqsadga muvofiqligi, sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribaning milliy qonunchilikka yetarli darajada

joriy etilganligi kabi masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, korrupsiyaga oidsamarali jinoyat qonunchiligini yaratish asoslantirilgan va ilmiy xulosalar asosida tashkil etilganidagina kutilgan samarani beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro institutlar ichida Birlashgan Millatlar tashkiloti muhim rol o'ynaydi. BMT tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan hujjatlar ichida 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi katta

⁷ Malikovna, K. R. N. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH-MUSTAQILLIK FALSAFASINING ASOSIY MASALALARIDAN BIRI. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1).

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387/>

ahamiyat kasb etadi⁹. O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyuldagi qonun bilan mazkur Konvensiyaga qo'shilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nafaqat BMT, balki Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Butunjahon bojxona tashkiloti ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zlarining faoliyatida alohida e'tibor berib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar tomonidan korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashda hamkorlik qilish va boshqa davlatlarni, xalqaro biznes tashkilotlarini korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilishga qaratilgan qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan.

Har bir mamlakat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'zining tajribasiga ega. Mamlakatimiz ilk bor 2008-yil 7-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi 158-sonli Qonuni bilan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shildi¹⁰. 2010-yilda esa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturi a'zosiga aylandi. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik islohotlari asosan 2017-yildan so'ng amalga oshirildi. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli Qonun qabul qilindi¹¹. Ushbu qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlarini belgilab berdi. Natijada davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish qonun darajasida mustahkamlab qo'yildi.

Tahliliy xususiyatlar. Ayrim mamlakatlarda jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima jazosidan ozodlikdan mahrum qilish jazosigacha, ayrimlarida esa ozodlikdan mahrum qilish jazosidan o'lim jazosigacha hukm qilinishi belgilangan. Ko'pgina xorijiy mamlakatlar korrupsion jinoyatlarni oldini olish maqsadida mansabdor shaxslarning mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish, barcha sohalarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning elektron tartibda amalga oshirish tizimini yo'lga qo'ygan¹².

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.// <https://lex.uz/ru/docs/-4875784>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktobr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi 158-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1369505>

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3088008>

¹² Mo'minova, D. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. *Akademicheskie issledovaniya v sovremennoi naуke*, 3(17), 193-198.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarlarni uchratish mumkin, lekin ular doimiy ravishda korrupsiya bilan qarshi kurashib keladi va korrupsiya darajasi kamligi bo'yicha jahon reytingida yuqori o'rnlarda turadi.

Bugungi kunda AQSH, Singapur mamlakatlari korrupsiyaga qashi kurash va uni shafofligi bo'yicha dunyo reytinglarida munosib o'rnlarga ega hisoblanadi¹³. Xitoy ham ushbu reytingda juda yuqorida sanalmasada lekin korrupsiyaga qarshi kurashishda sobit qadam mamlakatlardan hisoblanadi. Ushbu mamalakatlar tajribasini o'rganish orqali O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi harakatlariga qo'shimcha zaruriy huquqiy manbalar topish mumkin.

Korruksiyaga qarshi kurashishda AQSh davlatining tajribasi o'ziga xos xususiyatga ega. "Jinoyatlar va jinoiy ish yuritish"deb nomlangan AQSh kodeksining 18-bobi 201-moddasida mansabdar shaxslar yoki guvohlarning poraxo'rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Unga binoan, pora olish va berishdan tashqari, pora taklif qilish, va'da qilish, pora so'rash va porani olishga rozilik bildirish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi¹⁴. 1990-yilda AQShda qabul qilingan "Davlat xizmatchilari va amaldorlarining axloq qoidalari prinsiplari" to'g'risidagi, 1978-yildagi "Davlat muassasalari axloq qoidalari to'g'risida"gi, 1970-yilda "Rekret, bosim o'tkazish, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilik bilan kurashish to'g'risida"gi federal qonunlar tizimining mohiyati jinoiy tashkilotlar a'zolariga va korruksionerlarga nisbatan konfiskatsiya institutini qo'llashni va yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishdan iborat¹⁵. Mazkur qonunlar tizimi RIKO qonunlari deb nomланади. AQShda aynan mazkur qonunlarni qo'llash orqali korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik va narkobiznes jinoyatlarining soni tushgan ekan.

Hech bir davlat korruksiyadan va uning zararli oqibatlaridan mutlaqo himoyalangan emas. Shuning uchun har bir davlatning qonunlarida korruksiyaga qarshi kurashish sohasi eng dolzarb masalalardan biri sifatida ko'rsatilgan.

Bizning fikrimizcha, Xitoy qonunchiligidagi korruksiyaga qarshi kurashda yaxshi amaliyat yo'lga qoyilganbo'lib, bunda mansabdar shaxslarning mol-mulki deklaratsiya qilinib, ortiqcha qismi qayerdan kelganligini asosli ma'lumotlar bilan isbotlay olmasa, korruksiya sifatida baholanadi va mansabdar shaxsning javobgarlikka tortilishiga asos bo'ladi.

¹³ "Corruption perceptions index". <https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nz>

¹⁴ Title 18 of the United States Code. <https://uscode.house.gov/browse/prelim@title18&edition=prelim>

¹⁵ Ареев В.Н. Противодействие «государственной коррупции»: зарубежный опыт. Следователь. –2008. -№ 8. С.7-10.

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat kodeksining 382 - moddasiga ko'ra davlat xizmatchilarining o'z mansab imtiyozlaridan foydalangan holda davlat mulkini o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi yoki firibgarlik yo'libilan olishi yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishi korrupsiya deb hisoblanadi. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning og'ir-yengilligiga qarab javobgarlik belgilangan bo'lib, 100 ming yuandan ortiq miqdordagi yakka tartibdagi korrupsiya uchun o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi, mol-mulki musodara qilingan holda muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish, jazoni o'ta og'irlashtiruvchi holatlarda – o'lim jazosi belgilangan. Xitoy qonunchiligiga ko'ra, mol-mulki yoki xarajatlari amaldorlarning qonuniy daromadidan oshib ketmasligi lozim. Har qanday davlat amaldori Xitoy tashqarisidagi bankda saqlanuvchi o'z mablag'lari haqida tegishli tartibda davlatga xabar qilishi shart¹⁶.

Xitoy qonunchiligidagi korrupsiyaga korrupsiyaga qarshi kurashda samarali usullar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda mansabdor shaxslarning mol-mulki deklaratsiya qilinadi. Agar, ortiqcha qismi qayerdan kelganligini isbotlay olmasa, korrupsiya sifatida baholanadi va mansabdor shaxsning javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lar ekan.

Korrupsiya darajasi eng past bo'lган davlatlar ichida yuqori o'rinnarning birida turgan davlat bu – Singapur hisoblanadi. "Korrupsiyani oldini olish to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan o'zi yoki boshqa shaxs tomonidan yoki ular bilan birqalikda har qanday shaxs – o'zi yoki boshqa shaxs uchun pora so'rash yoki olish yoxud olishga rozilik berish yoki har qanday shaxsga yoki uning manfaati uchun pora berish, vada qilish yoki taklif qilish huquqbuzarlikka aybdor bo'ladi va sudlanganda 100000 dollardan ortiq bo'lмаган miqdorda jarimaga tortiladi yoki 5 yildan ortiq bo'lмаган muddatda ozodlikdan mahrum qilinadi¹⁷.

Singapur qonunchiligidagi ko'ra nafaqat pora olish yoki berish uchun, balki porani taklif qilsa yoki ushbu taklifni qabul qilsa, pora so'rasha javobgarlikbelgilangan. Bundan tashqari Singapur qonunchiligidagi poraxo'rlik jinoyatlari pora evaziga amalga oshiriladigan harakatlarning aniq ro'yxatini belgilash orqali chegaralab qo'yilgan.

Singapur korrupsiya illati bilan kurashishda "insonni korrupsiyaga undaydigan holatlarni yo'q qilish" niasosiy g'oya sifatida ilgari suradi. Bunday g'oyani amalga oshirish uchun bir nechta prinsiplar mavjud:

1. davlat sektorida faoliyat yuritayotgan kishilarning ish haqini xususiy sektorda ishlayotgan shaxslarning o'rtacha oylik ish haqi bilan bixillashtirish;

¹⁶ Criminal Law of the People's Republic of China. // [Electronic resource]. <https://www.fmprc.gov.cn/ce/cgvienna/eng/dbtyw/jdwt/crimelaw/t209043.htm>

¹⁷ Prevention of corruption Act // [Electronic resource]. URL:https://publicofficialsfinancialdisclosure.worldbank.org/sites/fdl/files/assets/lawlibrary-files/Singapore_AntiCorruption%20Law_1960%20amended%202002_en.pdf

2. mansabdar shaxslarning har qanday mulkini va daromadlari bo‘yicha yillik hisobotni kuzatib, tekshirib borish;

3. yuqori lavozimda faoliyat yuritayotgan mansabdar shaxslarning ma’naviy yuksakligini ta’minalash;

4. iqtisodiy rivojlanishda yuzaga keladigan ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish¹⁸.

Xulosa va amaliy tavsiyalar tariqasida shuni aytish muminki korrupsiyaga qarshi kurash bugungi kunda davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligini ta’minalashda muhim o‘rin tutmoqda. AQSH, Xitoy, Singapur va O‘zbekiston misolida o’tkazilgan tahlil har bir mamlakatda korrupsiyaga qarshi turli yondashuvlar va usullar qo’llanilishini ko‘rsatadi.

AQSH kuchli qonunchilik va jamoatchilik nazorati orqali korrupsiyani nazorat qilishga intilsa, Xitoy bu borada qattiq tartib va qat’iy jazo choralarini qo’llaydi. Singapur esa o‘zining korrupsiyaga qarshi toza va shaffof siyosati bilan namuna bo‘lib, kuchli qonunlar va ta’lim orqali korrupsiyani kamaytirishga erishgan. O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, shaffoflik va davlat boshqaruvida adolat tamoyillariga e’tibor kuchaytirilmoqda.

Biroq barcha mamlakatlar duch kelayotgan umumiy muammolar ham mavjud: korrupsiyaga qarshi madaniyatning yetarli darajada shakllanmagani, jamoatchilik ishtirokining sustligi va huquqiy ongning pastligi. Shunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun shaffoflikni ta’minalash, jamoatchilikni faol jalb etish va korrupsiyaga qarshi ta’limni kengaytirish zarur.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387> /
2. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagи “Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida”gi 158-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1369505>
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3088008>

¹⁸ “Korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlar tajribasi”. D.A.Ergasheva ; Jinoyat ishlari bo‘yicha Tomdi tuman sud raisi. <https://navoiy.sud.uz>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. <https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);
6. AMANDILLAYEV, B. (2022). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI. *Академические исследования в современной науке*, 1(18), 180-192.
7. ХИДИРОВ X. Глобал коррупция ижтимоий-маданий инқироз оқибати.// Фалсафа. Дарслик. –СамДУ.2021. –Б.504.
8. Mo'minova, D. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR TAJRIBASI. *Академические исследования в современной науке*, 3(17), 193-198.
9. Malikovna, K. R. N. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH-MUSTAQILLIK FALSAFASINING ASOSIY MASALALARIDAN BIRI. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1).
10. Mo'minova, D. (2024). KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR TAJRIBASI. *Академические исследования в современной науке*, 3(17), 193-198.
11. "Corruption perceptions index". <https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nz>
12. Title 18 of the United States Code.
<https://uscode.house.gov/browse/prelim@title18&edition=prelim>
13. Агеев В.Н. Противодействие «государственной коррупции»: зарубежный опыт. Следователь. –2008. -No 8. C.7-10.
14. Criminal Law of the People's Republic of China. // [Electronic resource].
<https://www.fmprc.gov.cn/ce/cgvienna/eng/dbtyw/jdwt/crimelaw/t209043.htm>
15. Prevention of corruption Act // [Electronic resource].
URL:https://publicofficialsfinancialdisclosure.worldbank.org/sites/fdl/files/assets/lawlibrary-files/Singapore_AntiCorruption%20Law_1960%20amended%202002_en.pdf

16. “Korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlar tajribasi”. D.A.Ergasheva ;
Jinoyat ishlari bo'yicha Tomdi tuman sud raisi. <https://navoiy.sud.uz>